

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025

avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
216 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari.....	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jaroyonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan.....	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Восстановление геологических сигналов с использованием кубических базисных сплайнов.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	



TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING AMALIY JIHATLARI

Madaminov Bekzod Allayarovich

Ma'mun universiteti Magistratura Bo'lim boshlig'i.

Fizika-Matematika fanlari bo'yicha falsafa doctori

PhD v.b.professor

<https://orcid.org/0009-0002-2806-691X>

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim bo'lgan amaliy vosita va mexanizmlar tahlil qilingan. Risklarni boshqarish, likvidlikni saqlash va kapital yetarliligi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqilib, milliy bank tizimi misolida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kapitallashuv, likvidlilik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmi, risk darajasini pasaytirish.

Abstract: Abstract. The article analyzes practical tools and mechanisms that are important in ensuring the financial stability of commercial banks. Risk management, liquidity maintenance and capital adequacy are considered as the main factors, and recommendations are given using the example of the national banking system.

Keywords: commercial banks, financial stability, capitalization, increasing the level of liquidity, lending mechanism, reducing the level of risk.

Аннотация: В статье анализируются практические инструменты и механизмы, важные для обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков. В качестве основных факторов рассматриваются управление рисками, поддержание ликвидности и достаточности капитала, а также даются рекомендации на примере национальной банковской системы.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, капитализация, повышение уровня ликвидности, механизм кредитования, снижение уровня риска.

KIRISH

Jahonda tijorat banklari barqarorligini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishga oid muam-molarni ilmiy asosda hal etish yuzasidan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda, jumladan, banklarning kapital-lashuv va likvidlilik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmini takomillashtirish, har toifadagi risk darajasini pasaytirish masalalariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiligini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tar-tibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish kabi tadbirlar tijorat banklar amaliyotida samarali boshqarish tizimini qo'llashni dolzarb masala qilib qo'yimoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirish, unda moliyaviy barqarorlikni mustahka-mlash, kapitallashuv va likvidlikni oshirish borasida olib borilgan islohotlar samarasida bir qator ijobiy nati-jalarga erishildi. Ayniqsa, ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti va moliya bozorlarini tahlikali holatga keltirgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida respublika bank-moliya tizimida kuzatilayotgan barqaror natijaviyligi, shu jumladan, tijorat banklar tizimi kapitallashuvi va likvidligining saqlab qolinishi olib borilgan islo-hotlarning amaliy natijasidir.

MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI.

Bugungi kungacha bank menejmenti va uni takomillashtirish masalalari mahalliy hamda MDH davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Tijorat banklari faoliyatida menejment tamoyillari va ularni rivoj-lantirish yo'nalishlari V.M. Usoskin [1], D.J. Siynki [2], Y.F. Jukova [3], U. Kox Timoti [4], I.V. Larionova [5], E. Rid [6], Y.A. Malenkov [7] kabi yetakchi xorijiy olimlar tadqiqotlarida aks etgan.

O'zbekiston olimlaridan B.T. Berdiyarov [8], V.A. Kotov, I.L. Butikov, N.X. Jumaev, O.B. Sattarov [9], O.Q. Abduraxmanov, R.T. Tursunov, R.R. Tojievlar [10] tijorat banklari faoliyati, vazifalari va rivojlanishining nazariy-amaliy jihatlarini yoritganlar. Shuningdek, bank marketingi va moliyaviy menejmentni boshqaruv jarayo-niga tatbiq etish masalalari A.Sh. Bekmurodov, B.Z. Mustafaev [11], B.K. Mirzamaydinov [12], M. Nasritdinova, M.M. Abduraxmanova [13] kabi olimlar izlanishlarida o'z aksini topgan.




Shunga qaramay, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini globallashtirish sharoitida yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Ushbu ilmiy izlanishda aynan shu masalalarga oid nazariy qarashlar, uslubiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 15 noyabrdagi "Aholini kichik va o'rta biznesni keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha yagona tizim joriy qilindi. Bank ushbu jarayonda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va KPMG xalqaro ekspertlarini jalb etdi.

2024 yil 1 yanvar holatiga bankning umumiy kapitali 3 trln 180,2 mlrd so'm, ustav kapitali esa 1 trln 856,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Aktivlar hajmi 27 trln 62,9 mlrd so'mga yetdi. Depozitlar 6,7% o'sish bilan 9 trln 418,7 mlrd so'mni tashkil etib, shundan 1,3 trln so'mi qisqa muddatli, 8,1 trln so'mi uzoq muddatli depozitlardan iborat bo'ldi.

Hisobot davrida bank 3,7 trln so'm daromad va 236 mlrd so'm sof foyda oldi. Kredit portfelida aholiga yo'naltirilgan kreditlar ulushi ortib bormoqda. Bu esa kredit ajratish jarayonlarining soddalashtirilishi va masofaviy bank xizmatlarining kengayishi natijasida mikroqarz, ipoteka va avtokreditlar hajmining ko'payishi bilan izohlanadi.



1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig'ining o'sishi [14]

2023-yilda iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig'i hajmi barcha sohalarda oshdi. Xususan, sanoatda 10,7 foizga o'sish bilan 140,2 trln so'm, qishloq xo'jaligida 12,3 foiz (47,3 trln so'm), transport va kommunikatsiyada 15,7 foiz (34,3 trln so'm), qurilishda 18 foiz (12,3 trln so'm), savdo va umumiy ovqatlanishda esa 12,5 foiz (32,5 trln so'm)ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda xususiy investitsiyalar ulushi ham sezilarli bo'ldi. 2023-yilda jami investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan 22,1 foizga oshib, 352,1 trln so'mni tashkil etdi. Shundan markazlashmagan investitsiyalar 26,2 foizga ko'payib 307,3 trln so'mga yetdi, markazlashgan investitsiyalar esa 0,7 foizga kamayib 44,8 trln so'mni tashkil qildi.

2023-yilda investitsiyalar tarkibida markazlashmagan manbalar ulushi 84,6 foizdan 87,3 foizga oshdi, markazlashgan investitsiyalar esa 15,4 foizdan 12,7 foizga qisqardi. Bu, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 2 barobarga, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'larining 17,9 foizga, aholi mablag'larining 9 foizga ko'payishi hisobiga shakllandi. Markazlashgan investitsiyalar hajmi deyarli o'tgan yil darajasida qolgan bo'lsa-da, hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,3 barobarga oshdi.

1 - jadval: Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha o'zgarishi, mlrd so'mda [14]

Moliyalashtirish manbalari	2022-yil	2023-yil	O'zgarish, foizda
Jami investitsiyalar	269 857,5	352 064,1	22,1
Markazlashgan investitsiyalar	41 548,1	44 806,8	-0,7
Byudjet mablag'lari	20 910,1	20 447,0	-11,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	2 447,9	1 554,2	-42,0
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	15 256,5	21 153,4	30,3
Markazlashmagan investitsiyalar	228 423,6	307 257,3	26,2
Korxonalarining o'z mablag'lari	84 513,9	84 936,4	-2,7
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	97 095,4	166 731,4	56,2
shu jumladan,			
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	37 006,3	84 311,6	96,4
Aholi mablag'lari	25 738,1	33 321,7	8,9
Tijorat banklari kreditlari	21 076,2	22 267,8	17,9

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyov tavsiyasiga oid ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasida ta'kidlanganidek zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati konsepsiyasi 2017-2021 yillarda milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosan tashqi talab va davlat xarajatlariga asoslangan mohiyatini aniqlash uchun ustuvor nazariy-uslubiy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakat tijorat banklari barcha turdagi faoliyatini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda o'z imkoniyatlarini oshirish choralari ko'rmoqdalar. Shu choralarni amalga oshirish uchun tadqiqotda Davr banki uchun quyidagi xizmatlar sifatini oshirish va bank barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan funksional model taklif etildi.

E'tirof etish lozimki, respublikamizda tijorat banklarining likvidiligi va kapitallashish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatning 2005 yildan boshlab izchillik bilan amalga oshirilganligi global moliyaviy inqiroz ta'sirining yumshoq kechishiga zamin hozirladi.

Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish respublikamizda inqiroz yuz berishidan avval boshlandi va bu banklar o'rtasida o'zaro mustahkam ishonchning saqlanib qolinishi va likvidlik muammolarini yuz bermasligini ta'minladi.

2008 yilda ham tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qarorlari, xususan, 2008 yil 13 avgustdagi PQ-944-sonli "O'zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat-qurilish bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlariga to'g'risida"gi, 2008 yil 13 noyabrdagi PQ-998-sonli "Asaka" davlat-aksiyadorlik tijorat bankining investitsiyaviy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2008 yil 16 oktyabrdagi PQ-986-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq bankining kapitallashuvini yanada ko'paytirish va investitsion faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilindi. Ko'rilgan chora-tadbirlarning samarasi o'laroq, respublikamizda banklarning yalpi kapitali birgina 2008 yilda 40 foizga ortdi.

Jumladan, tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyihalarni ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralari ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash; tijorat banklari kapitali tarkibida ularning inqiroz holatlari ta'siriga barqarorligini ta'minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish; kapital yetarililigiga qo'yilgan talablarni takomillashtirish, ehtimoliy zararlarni qoplashga zaxiralarni shakllantirishni ko'zda tutgan Bazeli qo'mitasining yangi takliflarini bank nazorati tizimiga joriy qilish shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz bank tizimining rivojlanishiga xos yana bir muhim tendensiya – bu tijorat banklarining ustav kapitaliga qo'yiladigan talablarning tadbiriy ravishda oshirilib borilayotganligidir.



2 - jadval: Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2022-yil 1-yanvar holatiga (banklar kesimida) ma'lumot [14]

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda
1	O'zmilliybank	89 919	20,2%	74 033	22,7%	14 769	20,8%	22 083	14,1%
2	O'zsanoatqurilishbank	56 511	12,7%	43 148	13,2%	7 701	10,9%	12 607	8,1%
3	Asaka bank	50 804	11,4%	37 685	11,5%	6 505	9,2%	10 729	6,9%
4	Ipoteka-bank	40 012	9,0%	29 046	8,9%	5 087	7,2%	15 824	10,1%
5	Agrobank	39 971	9,0%	32 258	9,9%	9 346	13,2%	11 839	7,6%
6	Xalq banki	26 921	6,1%	19 596	6,0%	5 480	7,7%	11 649	7,5%
7	Qishloq qurilish bank	20 708	4,7%	17 496	5,4%	2 696	3,8%	6 492	4,2%
8	Mikrokreditbank	13 483	3,0%	10 816	3,3%	2 321	3,3%	3 154	2,0%
9	Aloqa bank	12 638	2,8%	7 754	2,4%	1 674	2,4%	6 796	4,4%
10	Turon bank	11 010	2,5%	8 129	2,5%	1 915	2,7%	2 838	1,8%
11	Poytaxt bank	373	0,1%	80	0,02%	135	0,2%	235	0,2%
12	O'zagroeksportbank	69	0,02%	30	0,01%	67	0,1%	1	0,0%
Boshqa banklar		82 501	19%	46 312	14%	13 222	19%	51 942	33%

Jadval ma'lumotlari respublika tijorat banklari kapital bazasida ustav kapitali salmog'ining oshganini ko'rsatadi. 2015 yil 1 yanvar holatiga u 22,2 foiz punktga ko'tarilib, 35,7 foizga yetdi. Ustav kapitali regulativ kapitalning barqaror qismi ekanini inobatga olsak, bu ijobiy holatdir. Shu bilan birga, zaxira kapitalining ulushi pasaygan, tarkibidagi devalvatsiya zaxirasining yuqoriligi esa kapital sifati uchun salbiy omil bo'lishi mumkin, chunki Bazel talablari bo'yicha u I darajali kapitalga kiritilmaydi.

An'anaviy tartibga solish konsepsiyasi banklar barqarorligini, avvalo, kapital (inqiroz davrida esa likvidlik) bo'yicha prudensial talablar orqali ta'minlashga qaratilgan. Bank tizimining umumiy barqarorligi esa tijorat banklarining individual "himoya yostiq" mustahkamligiga bog'liq. Ayni paytda, mamlakatimiz amaliyotida aktivlarni sekyuritizatsiyalash qo'llanilmaydi, ya'ni kreditlar garovida chiqarilgan qimmatli qog'ozlar yangi kreditlarga asos bo'la olmaydi. Bu real sektor va moliya sektori o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur choralar bank tizimi barqarorligini ta'minlab, xo'jalik sub'ektlariga to'liq hajmda xizmat ko'rsatish imkonini yaratdi va aholining bank tizimiga ishonchini kuchaytirdi. Inqirozdan avvalgi davrda bank kapitallashuvini oshirish ustuvor yo'nalish etib belgilangan bo'lsa, bugun bu siyosat o'zini to'liq oqladi. Izchil islohotlar natijasida barqaror bank tizimi shakllangan va yangi xalqaro me'yorlar respublika banklari uchun jiddiy muammo tug'dirmayapti.

2024 yil 1 yanvar holatiga majburiyatlarda depozitlar 44 foizni, jalb qilingan kreditlar 40 foizni, boshqa banklardan olingan mablag'lar 8 foizni, qimmatli qog'ozlar 2 foizni, subordinar qarzlar va boshqa majburiyatlarda 6 foizni tashkil etdi. 2023-yilda tijorat banklari jalb qilgan depozitlar tarkibida aholi omonatlari 37 foizga oshib 86 trln so'mga yetdi. Milliy valyutadagi omonatlar 45 foizga ko'payib, ulushi 63 foizdan 66 foizga chiqdi. Shu



bilan birga, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi 43 foizdan 35 foizga kamaygan, qisqa muddatlilar ulushi 26 foizdan 29 foizga, uzoq muddatlilar ulushi esa 31 foizdan 35 foizga oshdi. 2023-yilda tijorat banklari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan xorijiy kreditlar hajmi 2,1 barobar oshib, 4,3 mlrd dollarga yetdi. Shundan qisqa muddatli kreditlar 34 foizni yoki 1,5 mlrd dollarni tashkil etdi.

2023-yilda savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi 39 mingdan ortiq loyihaga 53,7 trln so'mlik kreditlar berildi. Shu bilan birga, tijorat banklarida korporativ boshqaruv va risk-menejmentni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masalaga aylandi. Bank risklarini samarali boshqarish, likvidlikni ta'minlash va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish ularning barqarorligini mustahkamlamoqda.

XULOSA

O'zbekiston bank tizimi xalqaro amaliyotga mos shakllangan bo'lib, pul kapitalining tarmoqlararo taqsimoti tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Pul-kredit siyosati bandlikni oshirish va inflyatsiyani jilovlash maqsadida ishlab chiqarish hajmi, narxlar va pul taklifini tartibga solishga qaratilgan. Iqtisodiy pasayish sharoitida pul taklifi kengaytirilsa, inflyatsiya davrida esa qisqartiriladi.

Pul-kredit siyosati tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni ham o'z ichiga oladi: banklarning likvidligini ta'minlash, moliyaviy resurslar ustidan monopoliyani cheklash va kapitalning kam sonli muassasalarda to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik. Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalari orqali bank tizimidagi likvidlikni tartibga solib, bo'sh mablag'larni maxsus depozitlar va qimmatli qog'ozlarga jalb qiladi. Majburiy rezervlar normasi esa banklarning moliyaviy barqarorligidan kelib chiqib belgilanadi.

Milliy tajriba asosida, majburiy rezerv mexanizmini rag'batlantiruvchi shaklga o'tkazish taklif qilinadi. Jumladan, Markaziy bank tijorat banklariga rezerv fondidagi mablag'lari uchun foiz to'lovlarini amalga oshirsa, bu ularni yanada faolroq ishlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, pul-kredit siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kredit tizimida bozor munosabatlarining chuqurlashuviga, milliy valyuta barqarorligiga, iqtisodiy o'sishga va bank tizimining xalqaro standartlarga yaqinlashuviga xizmat qiladi. Tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini mustahkamlash esa mamlakat iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotining muhim kafolati hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции.-Москва: МКЦ ДИС, 1997.-464 с.;
2. Дж. Синки, мл. Управление финансами в коммерческих банках. пер. с англ. 4-го переработанного изд. БМА.М.: 1994, Са1а11аху. - 820 с.;
3. Е.Ф.Жукова. -М.: ЮНИТИ-ДАНА: Единство, 2006. - 575 с.;
4. Тимоти У. Кох. Управление банком: пер. с англ. В 5-ти томах (книгах), 6-ти частях. Уфа: Спектр. Часть 1,2003. - 112 с.;
5. Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. - М.: Консалтбанкир, 2003. - 272 с.;
6. Рид Э. Коммерческие банки. - М: Прогресс, 2006.- 261 с.;
7. Маленков Ю.А. Стратегический менеджмент: учеб. - М.: Проспект, 2009. - 224 с.
8. Berdiyarov B.T.Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. - Toshkent.BMA. 2002. -21 b.;
9. Sattorov O.B. Tijorat banklari lakvchdliligshsh ta'minlashni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. - Toshkent, BMA, 2008. - 21 b.;
10. Tojiyev R.R. Tijorat banklari likvidligini boshkarishning innovatsion strategiyasi.(“Agrobank”OATB misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.2011.
11. Mustafoev B.Z. Bank marketingi-moliya bozori shakllanishi va rivojlanishining asosi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.1998.;
12. Mirzamaydinov B.K. Bank xizmatida marketing samaradorligi.(O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqqisodiy faoliyat milliy banki misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.2008.;
13. Abduraxmonova M.M. Bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlanitirish.. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.2010.
14. www.cb.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100